



O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY TA'LIMINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH

¹Abdullajonov Davronjon Shokirjon o'g'li

Qo'qon Universiteti, raqamli texnologiyalar kafedrasida o'qituvchisi,
abdavron94@gmail.com, +998907857557,

²Qosimova Gulmira Qaxramon qizi

Qo'qon Universiteti, Iqtisodiyot yo'nalishi.
Qosimovagulmira342@gmail.com. +998991119521.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7490967>

ARTICLE INFO

Received: 18th December 2022

Accepted: 27th December 2022

Online: 28th December 2022

KEY WORDS

Masofaviy ta'lim, innovatsion ta'lim jarayoni, onlayn ta'lim, O'zbekistonda masofaviy ta'lim.

ABSTRACT

Ushbu maqolada masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklari shundan iboratki, bunda metodologik va nazariy bilimlar tadqiqotning asosiy jihati sifatida ta'kidlandi. Shu bilan bir qatorda izlanish xalqaro tajribaga va umumiy masofaviy ta'lim natijalarining tahliliy xususiyatlariga e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari masofaviy o'qitishning hozirgi holati va muammolari, masofaviy kurslarni yaratishning kontseptual asoslari ko'rib chiqilgan.

Kirish.

Respublikamiz mustaqillikka erishilgandan keyin barcha sohalardagi kabi ta'lim tizimimizda ham jiddiy islohotlar amalga oshirilmoqda, ta'limning sifatini yaxshilashga yanada e'tibor qaratildi. Shu boisdan bugungi kunda talabalarga sifatli ta'lim berishni tashkil qilishda ilmiy-texnika taraqqiyoti mahsuli bo'lgan zamonaviy axborot texnologiyalari va uning moddiy asosiy kompyuterlar xizmatidan keng foydalanib elektron darslik va qo'llanmalar tashkil etish va internet manbalaridan hamda masofadan o'qitishning dasturiy vositalaridan foydalanish davr talabi bo'lib qolmoqda. Aynan shu maqsadda axborot texnologiyalaridan foydalanish, mutaxassislarining umumiy ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligining sifatini oshirish uchun jahon andozalariga javob beruvchi axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiiq etish ham muhim ahamiyat kasb

etadi. Jamiyatimizning rivojlangan davrida avvalgi metodik qo'llanmalar bilan cheklanib qolmasdan, unga fan-texnika yangiliklari, Internet va yuksak texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalangan holda, ta'lim jarayonini ringlovchilari uchun yanada qiziqarli va mazmunli qilib o'tish maqsadga muvofiq.

Respublikamizda bugungi kunda kompyuter texnologiyalari va Internet tarmog'ini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Shunga ko'ra, ta'lim tizimidagi o'quv yurtlarida informatika va yangi axborot texnologiyalari bilan birga kasb ta'lim yo'nalishiga tegishli fanlarining o'qitilishi ham davr talabi bo'lib qolmoqda. Masofadan o'qitish usulida o'qituvchi bilan talaba bir-biridan masofa bilan ajralgan bo'lsa ham, doimiy muloqot saqlanib qoladi. Bu o'qitishni nazorat qilishning alohida usuli bo'ladigan elektron pochta va Internet texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi. Talabalarni zamonaviy



texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim tizimini yangicha usullardan foydalanib o'qish jarayonini tubdan o'zgartirish va multimedia texnologiyalarini ishonchlilik, xavfsizlik va unumlilik ko'rsatkichlarini oshirishni takomillashtirishdan iborat. Maqolaning obyekti: masofaviy talim tizimida o'qitish jarayoni. Maqolaning predmeti esa: ta'lim soxasida masofaviy o'qishning samaradorligi va avfzalliklari.

Xususan O'zbekiston boshqa mustaqil davlat xamdo'stligi mamlakatlariga o'xshab o'zining ta'lim soxasini jahon standartlariga olib kelishda ko'p xarakterlar amalga oshirilmoqda. Qolaversa shuni aytib o'tish joizki Muxtaram Prezidentimiz tashabuslari bilan, Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan 1-bob. 1-moddasi bo'yicha.¹ Ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solish va 5-moddada ko'rsatilgan Ta'lim olish huquqi Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Ta'lim olish huquqi: ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish; ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish; ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta'lim olishni tashkil etish; kadrlarni tayyorlash, qayta

¹ (3-moddaning sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O'RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)

tayyorlash va ularning malakasini oshirish; umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limni va boshlang'ich professional ta'limni bepul olish.

Bundan shuni aytishimiz mumkinki ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilganini ko'rishimiz mumkin. Xususan mamlakatimizning markazdan geografik uzoqlashgan regionlar mavjudligi elektron ta'limni rivojlanishiga asosiy sabab bo'lib, unga katta axamiyat berilishiga olib kelmoqda. Xozirgi moliyaviy tanqislik davrida, ta'limning bu turidan keng miqyosda foydalanish lozim. Mazkur ta'lim turini joriy qilish bilan bog'liq ayrim muammolarning kelib chiqishi tabiiy. Bular asosan mablag'lar, texnika taminoti va shu soxada malakali muxandis xamda pedagog kadrlar yetishmovchiligi, lekin biz shu muammolarni imkoniyat darajasida xal qilishimiz zarur.

Chunki, internet texnologiyalarining kirib kelishi, axborot texnologiyalarining rivojlanishi asrlar davomida o'zgarmay kelayotgan holatlarni o'zgartirib yuborishga sabab bo'ldi. Shu jumladan, ta'lim sohasi rivojlanishi uchun xizmat qilmoqda. Masalan: ta'lim tizimida ta'lim olishning an'anaviy shakllari o'rniga masofaviy ta'lim tizimini joriy etilishiga imkon yaratmoqda. Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanish holati birinchi navbatda jamiyatning intellektual salohiyatiga, mazmuni va sifat masalalari ustuvor yo'nalish etib belgilanmoqda. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta'limni axborotlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari o'rganilmoqda. Jahonda masofaviy o'qitish ochiq ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida keng qo'llanishi kuzatilmoqda.



Zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan yoshlarni tayyorlash «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»dan kelib chiqadigan vazifalarning asosiy maqsadidir. Bunda yuqori malakali kadrlar tayyorlash manbai – oliy ta'lim oldiga mas'uliyatli vazifalarni qo'yilmoqda. Jumladan, 6 ta ta'lim tizimi tubdan isloh qilinib, davlat standartlari asosida o'quv dasturlari yangidan tuzilmoqda. Bularning barchasi, o'z navbatida fanlarni o'qitish metodikalarini qaytadan qarab chiqilishini talab etadi. Shu munosabat bilan barcha o'quv muassasalarida, oliy o'quv yurtlarida o'quv tizimini yangidan isloh qilish, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqish va ularni amaliyotga keng jalb qilish, rivojlangan mamlakatlar o'quv tizimidagi yangiliklar va yutuqlarni o'rganish va ularni o'zimizda tadbiq etish lozim.

Shu o'rinda savol tug'iladi ya'ni masofaviy o'qitish tizimi va masofaviy ta'lim o'zi nima?

Masofaviy o'qitish — bu informatsion va kommunikatsion texnologiyalar — Elektron pochta, Internet, video konferentsiya, audio, video ma'lumotlar va multimedia o'quv qo'llanmalariga asoslangan uzoqdan turib o'qitish, o'rgatish usulidir. Masalan masofadan biror yangi mavzu yoki predmet bo'yicha ma'lumotlarni viloyatlardagi ixtiyoriy o'quv yurtlariga uzatish mumkin. Agar joylarda bu sohada mutaxassis yetishmasligi kuzatilsa, masofadan o'qitish tizimi yagona yo'ldir. Shuning uchun «Masofaviy o'qitish» formasi «XXI asr ta'limi deb xisoblanmoqda. Keyingi paytlarda masofaviy o'qitishning ijobiyligi isbotlangan. Bu borada birinchilik uchun AQSHning NTU Milliy Texnologiya Universiteti va Buyuk Britaniyaning ochiq

Universitetlari kurashmoqda. Masofaviy o'qitishni o'qish hamda ishlash jarayonida qo'llash sabablari shundaki, ta'lim tizimida o'quv jarayonini yangidan islox qilish, yangi informatsion texnologiyalarga asoslangan o'qitish usullarini ishlab chiqish, ularni keng joriy qilish bugunning talabidir. **Iqtisodiy tomondan yutuqlar va afzalliklarga ega bo'lishimiz mumkin:**

- Cheksiz masofaga ta'lim berish. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi masofa hech qanday ahamiyatga ega emas.
- Ish jarayoniga xalaqit bermasligi. O'quvchi ishdan ajralmas holatda ta'lim oladi.
- Masofaviy ta'lim texnologiyalarni to'liq qo'llagan o'quv muassasa talabalar soni 2-3 barobar oshishi mumkin.
- Narxi. Masofaviy ta'lim kurslari 2 va 3 barobar oddiy kurslarga qaraganda arzon.

Masofaviy ta'lim – masofadan turib o'quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o'qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lim majmuaidir. Masofaviy ta'limda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo'ladilar. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan muhim bir turkum yangi funktsiyalarni bajaradi.

Xususan masofaviy ta'lim afzalliklari: 24 soat davomida ma'lumot olish; zamonaviy materiallar; o'z-o'zini o'rgatish; o'z ixtiyoriga ko'ra moslashtirilgan kurslar; iqtisodiy samaradorlikdir. Masofaviy o'qitish tizimi esa– masofaviy o'qitish



shartlari asosida tashkil etiladigan o'qitish tizimi. Barcha ta'lim tizimlari singari masofaviy o'qitish tizimi o'zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega. Nima uchun masofaviy ta'lim kerak bo'lib qoldi? – degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu savolga javob tariqasida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- Ta'lim olishda yangi imkoniyatlar (ta'lim olishning arzonligi, vaqt va joyga bog'liqmasligi va boshqalar).
- Ta'lim maskanlariga talaba qabul qilish sonining cheklanganligi.
- Ta'lim olishni xohlovchilar sonining oshishi.
- Sifatli axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi.
- Xalqaro integratsiyaning kuchayishi. Yuqorida sanab o'tilgan sharoit va imkoniyatlar masofaviy o'qitishga ehtiyoj borligini ko'rsatadi.

Ammo masofaviy ta'limda salbiy tomonlari ham borligi haqida aytish lozim. Ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: Elektron holatdagi ta'lim va muloqot jarayonlarga ishonchsizlik. Ushbu sababdan talabalar asosan virtual holatdagi ta'lim turida emas, balki oddiy (kunduzgi va sirtqi) ta'lim turlarida o'qish istagida bo'lishadi, virtual muhit va texnika ta'minot bilan bog'liqligi. Masofaviy ta'lim internet borligi, undan foydalanish narxi, tezligi va servislar mavjudligiga, maxsus kommunikatsion texnikalar mavjudligi va ular ishlashiga taalluqlidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tanqidiy tahlili.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, tanlangan tadqiqot mavzusi alohida tadqiqot mavzusiga tegishli masofaviy ta'limining qo'llanishining nazariy va amaliy jihatlarini tadqiqotlarda atroflicha

bayon etilgan. Bu tadqiqotlar ko'plab mamlakatlarda o'z samarasini berib kelmoqda. Ya'ni online ta'limning cho'qqisiga yetgan ko'plab rivojlangan mamlakatlar uchun mashxur masofaviy ochiq online kurslarni misol keltirish mumkin, Bularga, Coursera, edX, Udacity, Ivercity – ochiq ommaviy onlayn ta'lim platformasi bo'lib, bunga Courseraning turli sohalarda bepul o'quv kurslarini taklif qiluvchi onlayn platformasi hisoblanadi. Bunday platformalar fan tilida MOOCs (Massive Open Online Courses-Ochiq ommaviy masofaviy kurslar) deb atalib, Korsera shu turdagi kurslarni taklif qiluvchi tashkilotlarning yetakchilaridan sanaladi². Hozirgi kunda ko'plab platformalarda dunyoning ko'plab davlatlaridan talabalar ro'yxatdan o'tib, o'zlari qiziqqan sohada masofaviy kurslarda bilim olishmoqda.

Kurslar materiallarini o'quvchi o'ziga qulay bo'lgan vaqtda o'rganishi mumkin. Qisqa muddat (1-3 oy) ga mo'ljallangan bo'lsa-da, taqdim etiladigan kurslar o'sha sohaga taalluqli maqolalar, ilmiy materiallar, video va audio namoyish(prezentatsiya)lar bilan boyitilgan bo'lib, odatda qatnashchidan avval shu sohada o'qigan bo'lishi yoki hech bo'lmaganda xabardor bo'lishi ham talab qilinmaydi. Muhimi – kuchli qiziqish bo'lsa bas. Shu bilan bir qatorda quyidagi jadval asosida AQSH hamda Germaniyaning kuchli masofaviy online kurslarini yuqori hamkorlik ko'rsatkichlari va foydalanuvchilari soni bilan kuchli beshtalikka kirgan provayder (platformalarini) ko'rishimiz mumkin(1-jadval).

² <http://nilufar.net>



1-jadval

| Provayder | Davlat | Tashkilotchilar | Hamkor Universitetlar | Kurslar soni | Foydalanuvchilar soni |
|-----------|-----------|---|-----------------------|----------------|-----------------------|
| Coursera | AQSH | Xususiy, Standford universiteti professorlari Andrew Ng va Daphne Koller. | 150 | 2000 dan ortiq | 25 mln. dan ortiq |
| adX | AQSh | Garvard universiteti va Michigan texnologiya instituti | 100 dan ortiq | 1500 dan ortiq | 10 mln. dan ortiq |
| Udacity | AQSH | Xususiy, Standford universiteti professori Sebastian Thrun | 2 | 227 | 8 mln dan ortiq |
| Iversity | Germaniya | Xususiy, Jonas Liepmann va Hannes Klopper tomonidan | 41 | 114 | 1.0 mln dan ortiq |

Xulosa.

Yuqoridagilarni xulosa qilib shuni aytish mumkinki, masofaviy ta'lim kompleksini ta'lim muassasalariga joriy etilishi har tomonlama foyda keltiradi. Oliy ta'lim tizimida bu kompleksni joriy qilish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Respublika miqyosidagi barcha Oliy ta'lim maskanlari (OTM) kompyuter, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bilan yaxshi ta'minlangan. Ularning barchasi Internet tarmog'iga ulanganlar. Ushbu texnologiyalarni ta'lim tizimiga keng joriy etish OTMlari oldiga qo'yilgan ko'p muammolarni o'z paytida hal etishga yordam beradi. Hozirda fanlarni kompyuterlardan foydalanib o'qitish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kompyuter texnologiyalarining imkoniyatlaridan o'quvchilarni shaxsga yo'naltirilgan rivojlanishini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali foydalanish mumkin. Pedagoglar kompyuterdan darsga metodik materiallarni tayyorlashdagina emas, balki fanni o'qitishda zarur kompyuter dasturlaridan foydalanishda, o'quvchilar bilan individual ishlash jarayonida ham foydalanadilar. Yana shuni aytib o'tish kerakki, videokonferentsiya texnologiya asosidagi masofaviy o'qitish usuli yuqori sifatli kanal, maxsus qurilmalarni talab qilganligi sababli masofaviy o'qitishning boshqa usullariga nisbatan moliyaviy jihatdan birmuncha ko'proq mablag' talab etadigan usullardan hisoblanadi.

References:

1. uz/ru/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/eshitishida-va-ko-rishida-nuqsoni-bo-lgan-bolalar
2. Engaging Deaf and Hard of Hearing Students in the School Library: A Handbook for Teacher-Librarians Nadene Eisner University of Illinois at Urbana-Champaign Graduate School of Library Information Science 2 May 2012



3. <http://ilmiy.bmti.uz/blib/files/116/Maxsus%20pedagogika.pdf>
4. Shokirjon o'g'li, A. D., & Solijon o'g'li, T. U. (2022). The Application of Digital Technologies to Enterprises and Organizations Will Help Reduce Social and Economic Costs. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 4, 131-140.
5. Abdullajonov, D. (2022). Raqamli texnologiyalar orqali Yangi O'zbekistonning Iqtisodiyotini rivojlantirish, Raqamli Iqtisodiyotning istiqbollari: Raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, raqamli O'zbekiston, AKT, "Bir million dasturchi", axborot xavfsizligi, elektron tijorat. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000006).
6. Abdullajonov, D. (2022). Корхонада ходимларнинг меҳнат мотивациясини кучайтиришнинг ижтимоий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш: меҳнат мотивациясини, хориж тажрибаси, самарадорлиги, корпоратив тизимлар, инновацион иқтисодиёт. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000005).
7. Қосимова, Г. Қ. Қ. (2021). Мамлакатимизда камбағаллик даражасини камайтириш йўллари. Scientific progress, 2(7), 808-816.
8. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "«Raqamli O'zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga 1-ilova "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi. 2020 yil 5 oktyabr, PF-6079-son.
9. Kambarov, J., Rakhmatov, U., Rakhmonov, N., & Sultanova, Y. (2020). Problems and solutions for the implementation of the industry-4.0 program in Uzbekistan. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2677-2683.
10. Toxirov, R. S., & Raxmonov, N. R. O. G. L. (2021). DASTURIY TA'MINOT YORDAMIDA ZAMONAVIY BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 1(1), 181-186.
11. Tokhirov, R., & Rahmonov, N. (2021). Technologies of using local networks efficiently. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 250-254.
12. Rahmonov, N. (2021). KORONA INQIROZNING XITOY VA O'ZBEKISTON SAVDO-IQTISODIY ALOQALARIGA TA'SIRI. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000003).
13. Rahmonov, N. (2021). Бизнес Режа Тузишда Математиканинг Аҳамияти. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000003).
14. "Aqlli" qishloq xo'jaligi - raqamli texnologiyalar. G.Q.Qosimova, F.M.Mulaydinov
15. G.Q.Qosimova, F.M.Mulaydinov. Iqtisodiyot va biznesda innovation rivojlanish muammolari. Ilm va madaniyat yosh olim va etakchilar nigohida: xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi, 26 iyun 2020 y. – Qo`qon. 172-174 betlar.
16. D.SH.Abdullajonov, G.Q.Qosimova. Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarida hamda qishloq va suv xo'jaligida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish.